

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY TA'LIM TARBIYANING ROLI.

Roziqova Gulchehra

Samarqand Davlat Universiteti

Maktabgacha ta'lism fakulteti

“Maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiyasi”

kafedrasi o'qituvchisi .

Annotatsiya Ushbu maqolada bolalarnin ijtimoiy hayotga moslashishida,ta'lism olishida va jamiyat qonun-qoidalarini ozlashtirishidagi to'siqlarini yengishida oilaviy muhitning ahamiyati va ta'lism muassasalari vazifalari va burchlari hadida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moslashuv, ta'lism berish, tarbiyalash,shaxs kamoloti,shaxsiy xususiyatlar.

The role of social education in preschool education.

Ruzikulova Gulchehra

Samarkand State University

Faculty of Preschool Education

Annotation This article highlights the importance of the family environment and the role and responsibilities of educational institutions in helping children adapt to social life, learn, and overcome barriers to learning the rules of society.

Key words: adaptation, education, upbringing, personal development, personal characteristics.

Darhaqihat maktabgacha ta'lism bola shaxsini sog'lom va etuk maktabda oqishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lism bolaning olti – etti yoshga to'lgunga qadar oilada maktabgacha ta'lism

muassasalari (yaslilar uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun bolalar bog‘chalari 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo‘lgan bola uchun) va mulk shaklidan qat’iy nazar ta’lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar rivojlanadilar va ta’lim – tarbiya oladilar. Ularning sog‘ligi mustahkamlanadi o‘z – o‘ziga xizmat kursatish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg‘onadi. Kattalarga hurmat vatanparvarlik to‘yg‘ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta’limi uchun tayyorgarlik ko‘radilar. Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta’limning bizga ma’lum quyidagi vazifalari mavjud:

- bolalarni xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlanirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini ta’minlash.

Bolaning rivojlanishi bola hayotining dastlabki kunlaridanoq boshlanadi: Bu davrlarda bolaning nutqi ham tez rivojlanadi. Bolaning ilk yoshlik chog`ida to`g`ri, mavridi bilan o`sishi uning hayot sharoitiga, tevarak atrofdagi kattalarning aktiv, biror maqsadga qaratilgan ta’sir ko`rsatishiga bog`liq. Bola uchun zarur sharoit yaratish, kattalarning unga bevosita ta’sir ko`rsatishi natijasida bolada birinchi tabassum yuzaga keladi, u buyumlar bilan o`ynaydi, harakatlari, nutqi, rivojlanadi. Bolaning rivojlanishi uning ta’lim va tarbiyasi bilan belgilanadi. Buni bola hayotining birinchi oylaridanoq boshlash kerak. Ilk yoshdagi bolalarning birinchi

xususiyati ularning jismoniy va nerv-psixik rivojlanishi o`rtasida mustahkam aloqa bo`lishidadir. Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma`rifat, ma`naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o`rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun qoidalarini muttasil izlaganlar. Chunki insonning ma`rifatli va ma`naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Tarbiya haqida mashhur pedagog Abdulla Avloniy tarbiyaga alohida e'tibor berib : «Tarbiya yo hayot yo momot yo najot yo halokat yo saodat yo falokar masalasidir»¹- degan edi. Bola tarbiyasi xususida sharq va g'arb olimlari, allomalari o'zlarining fikrlari qarashlarini bayon etib ketishgan. 1934-yilda takomillashtirilgan “Tarbiyalash programmasi” nashr etildi. Unda bolalar bog'chasida bolalarning ko'p qirrali hayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e'tibor berildi. Qur'oni Karim va Hadislarda ham ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida to'htalib o'tilgan.

Ilm-ulug' hikmat, ilm-iymon, e'tiqod. Demak, din asosini ham ta'lim ilm tashkil etadi. Beshikdan qabrgacha ilm izla kabi ibratli so'zlar ham hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan deb ayta olamiz. MTM dagi asosiy vazifasi - hamisha ijobiy holatda bo`lish, o'qitish, o`rgatish va o'rganishdir. Demak, ular MTM dagi jo'shqin faoliyatning boshqaruvchisidir. Bu borada mohir boshqaruvchi bo`lish murabbiy va tarbiyachilarining baxti hamdir. Bu jo'shqin faoliyat yana shunisi bilan ahamiyatlici, MTM da bolalarning o'zaro va murabbiy hamda tarbiyachilari bilan bo`ladigan munosabatlari yanada chuqurroq va mazmundorroq bo'ladi. Bolalarda o'z-o'zini o'rganish va tarbiyalashga ishtiyoq kuchayadi. Uchun yaqin maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi, yaqin kishiga, o'rtoqga, do'stga aylanadi. Barchaga ma'lumki, bolani maktabda muvaffaqiyatli o'qishi maktabgacha tarbiya davridagi tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bolani maktabda o'qishga hayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishi-ning barcha tomonlarini o'z ichiga oladi va maktabgacha tarbiya davrida amalga

oshiriladi. Bolani mактабда о'qishga tayyorlashda uning aqliy jihatdan tayyorligi 3 ta asosiy komponentdan, ya'ni: uni o'rab turgan tabiat, odamlar hayoti. Maktabgacha yoshdagi bolaning mактаб ta'limga o'tishi hamisha uning hayoti, xulqi, qiziqishi va kundalik munosabatlarida anchagina jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uydayoq mактаб ta'limga tayyorlash jarayonida uncha qiyin bo'lмаган bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish, o'z navbatida bolada kechadigan moslashuv davri jiddiy qiyinchiliklarsiz o'tishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
3. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
4. Malika Inomova. “Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi”. T.: 1999 yil
5. Hasanboeva O. Oila pedagogikasi. - Toshkent: «Aloqachi», 2007.